

**МАHMUD ZAMAXSHARIY “MUQADDIMATU-L-ADAB”
ASARINING TARKIBI VA MAZMUNIY TAVSIFI**

Muhammadova Munisa

*“Yuksalish” xususiy maktabining
arab tili o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, O‘rta asrlarda yashab ijod etgan yetuk alloma Mahmud az-Zamaxshariyning “Muqaddima-t-ul adab” asarining yaratilish tarixi va maqsadi, uning tasmifi, bo‘limlari va qaysi tillarni o‘z ichiga olgani, boblarning nomlari va turlari, asarning tarjimalari va qo‘lyozma nusxalari tilshunoslikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Аннотации: В данной статье история и цели создания произведения «Мукаддима-т-уль Адаб» Махмуда аз-Замахшари, великого мыслителя, зрелого учёного, жившего в средние века, его классификация, разделы и на каких языках он содержит названия глав и типов, переводы работы и значение рукописных копий в лингвистике.

Annotation: In this article, the history and purpose of the creation of the work "Muqaddima-t-ul Adab" by Mahmud al-Zamakhshari, a great thinker, a mature scholar who lived and worked in the Middle Ages, its classification, sections and which languages it contains, the names of the chapters and types, translations of the work and the importance of manuscript copies in linguistics.

Kalit so‘zlar: grammatika, hadis, fiqh, qo‘lyozma, lug‘atshunoslik, manba, jug‘rofiya, tafsir.

Ключевые слова: грамматика, хадис, исламское правоведение, рукопись, лексикография, источник, география, интерпретация.

Key words: grammar, hadis, Islamic jurisprudence, manuscript, lexicography, source, geography, interpretation.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul-adab” asari eng ko‘p ko‘chirilgan asarlar sirasiga kiradi va har bir nusxasi o‘ziga xos manba xususiyatiga ko‘ra farqlanadi. Biz o‘rganayotgan ushbu to‘rt tillik Toshkent nusxasining lug‘at qismi tilshunos va manbashunos olimlar tomonidan anchagina puxta o‘rganilgan bo‘lsa-da, qo‘lyozmaning to‘liq ilmiy tavsifi ishlab chiqilmagan. Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasi, tilshunoslik lug‘atshunoslik, adabiyotshunoslik, diniy tafsir, hadis, fiqh kabi fanning bir qator sohalariga oid 70 dan ortiq asarlari mavjud va ularning har biri o‘zi taalluqli bo‘lgan mavzu doirasida qimmatli ilmiy, adabiy,

diniy manba bo‘lib xizmat qiladi. “Muqaddimat-ul-adab” asarini olim milodiy 1137-yilda yaratgan bo‘lib, asli uchta tilda yaratilgan lug‘at va grammatikaga oid qismlarni o‘z ichiga olgan. Arab tili grammatikasi va o‘zi ijod etgan davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘z va iboralarini qamrab olgan, ularning etimologiyasiga e’tibor bergen holda, mukammal lug‘at holida tartib bergen, dastlab muallif tomonidan arabcha-forscha-turkiycha (xususan, muallif so‘zlashgan til qadimgi xorazmcha) so‘zlardan iborat holda yaratilgan. Muallif ushbu asarni arab bo‘lмаган ajamliklar hamda mahalliy aholiga arab tilini o‘rgatish, arab tilida so‘zlashish va tushunishga imkon beruvchi qo‘llanma maqsadida yaratgan. Asar muallif yashagan davrining o‘zidayoq bir necha nusxada ko‘chirilgan. Xususan, Ilk O‘rta asrlarda Xorazmda hukm surgan hukmron sulola vakili Xorazmshoh Otsiz ushbu asarga moyillik bildirib, allomadan o‘z shaxsiy kutubxonasi uchun nusxa ko‘chirib berishini so‘ragan. So‘ngra Zamaxshariy xattotlik ilmini puxta egallagan sababli, hukmdor kutubxonasi uchun shaxsan o‘zi bu asarni ko‘chirib beradi, xatto, hukmdorning e’tirofi, e’tibori va rag‘batiga tushgan bu asar, darhaqiqat, o‘z davrida tilshunoslik, leksikografiyaning asosiy darsligiga aylandi. Muallif ushbu qo‘lyozmani xattoki, Xorazmshoh nomiga bag‘ishlab, “Lug‘ati Xorazmshohiy” deb ataydi va asar muqaddimasida lug‘atga qiziqish bildirgan Xorazmshoh Alouddin Muhammad Otsizniadolati, ma’rifatparvarligi, fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlagani, ilm ahllariga chuqur hurmat va e’tibor ko‘rsatganini, uning boshqa insoniy fazilatlari hamda hukmdor sifatidagi shaxsiy fazilatlarini alqab o‘tadi. Ushbu asarning hijriy 898, milodiy 1492-yilda Darvish Muhammad tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmasidan bizning tadqiqotimizga tortilgan yagona to‘rt tillik Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 202-raqam ostida salqanayotgan qo‘lyozma nusxasi ko‘chirilgan bo‘lib, muallif yashagan davrdan nisbatan uzoq vaqtidan so‘ng ko‘chirilgan bo‘lsa-da so‘zlar va uslub originalligi saqlab qoltingan. Asarning qayerda ko‘chirilgani noma'lum ammo u ko‘chirilish sanasi qo‘lyozma kolofonida berilgan bo‘lib, hijriy 1339-yilning muazzam shabon oyida, milodiy 1921-yilga to‘g‘ri keladi, bu sanalar asar so‘ngida berilgan qit’ani abjad usulida hisoblash orqali ko‘rsatilgan. Ushbu nusxa Musajon Sayidzodaning sa’y-harakatllari bilan Mirzo Mavlon Mirzo Ikrom Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan. Ammo ushbu asar qo‘lyozma nusxalarining ko‘pligi, bir necha sulolalar hukmronligi davrida qayta-qayta ko‘chirilganligi aholi orasida arab tilini o‘rganishga bo‘lgan talabning oshganligi va bunda ushbu asar kerakli va foydali manba bo‘lib xizmat qilgani uchundir.

Qo‘lyozma 533 varoqdan iborat bo‘lib, sahifalar lotin alifbosining kichik “a” va “b” harflari bilan belgilangan. Asarning Grammatik qoidalar berilgan qismi mavjud emas, to‘laligicha yetib kelmagan bo‘lsa-da, lug‘at qismining barcha fasl va boblari to‘liq berilgan. Asar oxiri ushbu nusxada kolofon bilan tugallangan, unda asarning yozilgan yili va tugallanish vaqtini hijriy yil hisobida, abjad usulida qit‘a janri orqali ifodalangan. Asar quyidagi qismlar va boblar, fasllardan tashkil topgan:

1. Muqaddima (v, 001 b – 005 b).
2. Lug‘at qismi (v, 006 a – 533 a):

 - a) Ismlar bobi;
 - b) Fe’lllar bobi;
 - c) Harflar bobi;
 - d) Ismlarning turlanishi;
 - e) Fe’llarning tuslanishi.

3. Xotima qismi (v, 533 b)

Qo‘lyozma qog‘ozi yupqa va tekis Qo‘qon qog‘ozi bo‘lib, yupqaligidan orqa va oldi sahifadagi matn siyohlari ba’zi qismlarda bir-biriga o‘tib qolgani, matnning to‘g‘ri o‘qilishiga biroz xalaqit beradi. Matn yana arab grafikasida yozilgani uchun harflardagi nuqtalar, harakatlar muhim hisoblanadi, siyohlarning sahfalarga o‘tib qolgani qo‘srimcha nuqta va harakatlarning orttirib, so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qishga olib keladi. Nusxada ba’zi bir sahfalarda dog‘lar mavjud bo‘lib, bu dog‘ siyoh qurimasidan qog‘ozga biron-bir suyuqlik to‘kilgani yoki siyohning o‘zi oqib ketgani bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bunday nuqson qo‘lyozmaning barcha qismida emas, 244-varoqning “a va b” sahifasida kuzatilgan bo‘lsa-da, so‘zlarning shaklini o‘chmagan, faqat ozgina xiralashgan, uni o‘qishda muammo tug‘dirmaydi. Shuningdek, qo‘lyozmada shunday saifalar borki, 93-, 96-sahifalar matnsiz qoldirilgan. Shuningdek, “304 b” va “305 b” saqlanib qolgan bo‘lsa ham, matnni o‘qishda katta muammoga duch kelasiz, yozuvlar harakatlari ko‘rinmaydi, bir-biriga chalkashib ketgan, orqa sahifa yozuvlarining siyohlari bilinib qolgan. taxminimizcha. Muqaddima esa uchta tilda: arab, fors va turkiy tilda yozilgan, siyohlari qora va qizil rangda(turkiy matn) mo‘g‘ul tilida yozilmagan. Qo‘lyozma o‘lchami 16\24 sm, undagi matn o‘lchami esa 9\14 sm. Qo‘lyozmadagi turkiy so‘zlar matni o‘ziga xos grafik xususiyatlarga ega. Undagi aksariyat turkiy so‘zlarning to‘g‘ri o‘qilishini ta’minalash maqsadida so‘zlarga arab yozuviga xos harakatlar qo‘yilgan.. Bu esa fikrimizcha, lug‘atni ko‘chiruvchi xattot ham garchi asar arab tilini o‘rgatishga mo‘ljalangan bo‘lsa-da, turkiy tilga alohiida e’tibor bilan yondashgani yoki muallifning turkiy ekanligiga ishora etganini bildirsa kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimjonov M. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asaridagi arabcha-turkiyicha so‘zlikning leksikografik tahlili. Ismlar. Filol. Fanl. nomz... diss. .. avtoref . – Toshkent, 1994. –8 b.
2. Islomov Z. Maxmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe’llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni. Filol. fanl. dok. diss... avtoref. –Toshkent, 1998. – 28 b.
3. Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar & Ubaydulla Uvatov. Mahmud Az-Zamaxshariy | Xurshid Davron kutubxonasi <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/har-kunning-bir-hikmati-bor-zamaxshariy-hikmatlari.html>

